

DAVLAT AUDITIDA NAZORAT-XAVF TAXLILINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Mirzaakbarov Abdulaziz Asqarjon o'g'li
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat moliyaviy nazoratida xavf-tahlilni amalga oshirishning uslubiyoti o'rganiladi. Xavf-tahlil jarayonining bosqichlari, ya'ni xavflarni aniqlash, baholash, boshqarish va monitoring qilishga asosiy e'tibor qaratilgan. Xavf-tahlil usuli davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirish, byudjet mablag'larining oqilona sarflanishini ta'minlash va moliyaviy xavflarni kamaytirish uchun zaruriy vosita sifatida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *davlat moliyaviy nazorati, xavf-tahlil, byudjet mablag'lari, moliyaviy xavflar, moliyaviy nazorat, monitoring, xavflarni boshqarish, davlat byudjeti, nazorat strategiyalari, moliyaviy tahlil.*

Abstract: *This article studies the methodology of risk analysis in state financial control. The main focus is on the stages of the risk analysis process, namely, identifying, assessing, managing and monitoring risks. The risk analysis method is considered as a necessary tool for increasing the efficiency of state financial control, ensuring rational spending of budget funds and reducing financial risks.*

Keywords: *state financial control, risk analysis, budget funds, financial risks, financial control, monitoring, risk management, state budget, control strategies, financial analysis.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается методология анализа рисков в государственном финансовом контроле. Основное внимание уделяется этапам процесса анализа рисков, а именно: выявлению, оценке, управлению и мониторингу рисков. Метод анализа рисков рассматривается как необходимый инструмент повышения эффективности государственного финансового контроля, обеспечения рационального расходования бюджетных средств и снижения финансовых рисков.*

Ключевые слова: *государственный финансовый контроль, анализ рисков, бюджетные средства, финансовые риски, финансовый контроль, мониторинг, управление рисками, государственный бюджет, стратегии контроля, финансовый анализ.*

KIRISH

Hozirgi kunda davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishni talab qilmoqda. Shu maqsadda, davlat moliyaviy auditining huquqiy bazasini mustahkamlash zarurati hayotiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda moliyaviy audit sohasidagi qonunchilik yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, ayrim normalar amaliyot talablariga javob bermayapti. Shuningdek, audit jarayonlarining huquqiy jihatdan tartibga solinishi to'liq ta'minlanmagan, bu esa audit faoliyatining samaradorligi va ob'ektivligini kamaytirishga olib keladi. Shu sababli, davlat moliyaviy nazorati tizimida huquqiy islohotlarni amalga oshirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Davlat auditi tizimini takomillashtirish masalalari xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar Prezidentning PF-252-son Farmonida⁴ o'z aksini topgan bo'lib, unda audit tizimini raqamlashtirish, institutsional islohotlarni amalga oshirish hamda samaradorlik auditini joriy etish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Xalqaro miqyosda esa davlat auditining metodologik asoslari INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan ISSAI standartlari hamda Mexiko deklaratsiyasi (INTOSAI P-10) orqali belgilab berilgan bo'lib, ular oliy audit organlarining mustaqilligi va audit faoliyatining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, World Bank tomonidan ishlab chiqilgan PEFA baholash tizimi davlat moliyasini boshqarish samaradorligini baholashning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot mavzusini chuqurroq o'rganish maqsadida bir necha xorij mamlakatlari va mahalliy olinlar hamda tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o'rganib chiqildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida nazariy tahlil, qiyoslash metodi, solishtirma tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotni amalga oshirishda ikkilamchi ma'lumotlar bazalaridan olingan ma'lumotlar tahlil etildi. Davlat auditi nazorat-xavf taxlilini amalga oshirish tizimi o'rganilib, ularni chuqur tahlil etidi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Moliya sohasidagi huquqiy fan va amaliy faoliyat uchun "davlat auditi" va "davlat moliyaviy nazorati" tushunchalarini ajratish muhim ahamiyat kasb etadi, shu maqsadda ushbu tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratining nazariy va huquqiy asoslarini, moliyaviy nazoratning kontsepsiyasi va mohiyatini ko'rib chiqish hamda o'rganish vazifasini oldi.

Professorlar A.V.Vahobov va T.S. Malikovlarning fikricha, barcha iqtisodiy sub'yektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi.

Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunshilikka rioya etilishi, moliyaviy xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o'z ishiga oladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo'lishining baholashni o'z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o'zining analitik yo'nalishiga ega¹¹.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga oid vazifalarni D. Pulatov umumlashtirishga harakat qilgan¹². Tadqiqotchilar A.K., Ibragimov R.M., Abdualimov ishlarida yangi taraqqiyot bosqichida davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish muammolari taxlil qilingan.¹³ O'zbekistonda davlat moliya nazoratini tashkil qilishning nazariy, metodologik asoslari, bozor iqtisodiyoti

¹¹ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2008 y. 316 b.

¹² Пулатов Д. Вопросы совершенствования государственного финансового контроля в узбекистане. Perspectives of Innovations, Economics and Business. 2009. Т. 2. № 2. С. 49-50.

¹³ Ибрагимов А.К., Абдуалимов Р.М. совершенствование организации финансового контроля в республике узбекистан. В сборнике: актуальные вопросы совершенствования бухгалтерского учета, статистики и налогообложения. Материалы VII международной научно-практической конференции. 2018. С. 41-49.

sharoitidagi tashkiliy va uslubiy jihatlari, uni takomillashtirish masalalari iqtisodchi olim M. Tulaxodjayeve dissertatsiyasida o'rganilgan¹⁴ Tadqiqotchi, O'zbekistonda davlat moliya nazoratini tashkil qilishning hozirgi davrdagi holati, uning huquqiy asoslari, ushbu jarayondagi mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf qilish masallarini o'rgangan.

Yuqoridagi olimlar fikriga qo'shilgan holda, davlat auditini budjet mablag'larini boshqarishning asosiy funksiyasi sifatida qarab, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda holisona yondashish va aniq dalillarga tayanish lozim. Budjet mablag'lari nazoratini amalga oshirishda davlat moliyaviy nazorati organlari katta ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Tadqiqot ishida davlat moliyaviy nazoratida xavf-tahlilni amalga oshirish jarayonining samaradorligini baholash uchun statistik tahlil o'tkazildi. Tadqiqot davomida davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan aniqlangan xavf holatlari, moliyaviy yo'qotishlar va ularni boshqarish strategiyalari ko'rib chiqildi. Statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, xavf-tahlil metodologiyasining samaradorligi haqida xulosa chiqarildi.

Quyidagi jadval davlat moliyaviy nazorati tomonidan o'tkazilgan audit jarayonida aniqlangan moliyaviy xavflarni ko'rsatadi. Ma'lumotlar 2023-2025 yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasidagi moliyaviy nazorat organlari faoliyatidan olingan.

1-jadval 2023-2025 yillar davomida aniqlangan va boshqarilgan moliyaviy xavflar¹⁵.

Yillar	Aniqlangan xavflar soni	Moliyaviy yo'qotishlar (mlrd. so'm)	Boshqarilgan xavflar (%)
2023	135	50	72%
2024	160	65	75%
2025	180	80	78%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, aniqlangan moliyaviy xavflar soni yildan yilga oshib bormoqda. 2023 yilda 135 xavf holati aniqlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025 yilda 180 taga yetgan. Bu xavf-tahlilning davlat moliyaviy nazoratida tobora muhim vosita sifatida qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, moliyaviy yo'qotishlar ham ko'paymoqda, 2023 yilda 50 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda 80 milliard so'mga yetgan. Biroq, boshqarilgan xavflarning foiz ko'rsatkichi ham ortgan, bu xavf-tahlilning samaradorligini ko'rsatadi.

Xavf-tahlil jarayonining samaradorligini baholash uchun aniqlangan xavflar va boshqarilgan xavflar o'rtasidagi nisbat tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda bu nisbat yillar bo'yicha aks ettirilgan.

2-jadval 2023-2025 yillar davomida xavf tahlilining samaradorligi¹⁶.

Yillar	Aniqlangan xavflar soni	Boshqarilgan xavflar soni	Samaradorlik darajasi (%)
2023	135	97	72%
2024	160	120	75%
2025	180	140	78%

Yuqoridagi jadval xavf-tahlilning samaradorlik darajasi yildan yilga oshayotganini ko'rsatmoqda. 2023 yilda aniqlangan xavflarning 72 foizi boshqarilgan bo'lsa, 2025 yilda bu

¹⁴ Тулаходжаева М. Организация и методы финансового контроля в республике узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук Москва, 1998.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ko'rsatkich 78 foizga yetgan. Bu, o'z navbatida, xavf-tahlil uslubiyatining tobora takomillashib borayotganini va moliyaviy nazoratda foydalanilayotgan usullarning samarali ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat moliyaviy nazoratida xavf-tahlil usuli tobora takomillashib borayotganiga qaramasdan, moliyaviy yo'qotishlar ko'payib bormoqda. Bu xavf tahlilning o'z vaqtida amalga oshirilishi va aniqlangan xavflarga tezkor chora ko'rish ehtiyojini oshiradi. Shuningdek, xavflarni boshqarish samaradorligi yuqori bo'lsa-da, 2025 yilda bu ko'rsatkich biroz pasaygan.

Davlat auditida xavf-tahlilni amalga oshirish bugungi kunda davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning muhim vositasiga aylangan. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aniqlangan moliyaviy xavflar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Bu, bir tomondan, xavf-tahlil usulining moliyaviy nazorat jarayonida samarali qo'llanilayotganini ko'rsatsa, boshqa tomondan, davlat moliyaviy tizimida hali ham muhim xavflarning mavjudligini anglatadi. Aniqlangan xavflarning ko'payishi bir nechta omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Birinchidan, davlat audit organlarining faoliyat samaradorligi oshib, moliyaviy jarayonlar bo'yicha kengroq tahlillar o'tkazilmoqda. Bu esa ko'proq xavf omillari aniqlanishiga olib keladi. Ikkinchidan, budget mablag'larining taqsimlanishi va moliyaviy jarayonlar murakkablashgani sayin, yangi turdagi xavflar paydo bo'layotgani ham kuzatilmoqda. Shu sababli, nazorat organlarining tezkor va moslashuvchan yondashuvlar orqali bu xavflarni aniqlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xavflarni boshqarish samaradorligi ham tadqiqot natijalarida alohida e'tibor qaratilgan masalalardan biridir. Yildan-yilga ko'rilayotgan choralar soni ortib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayonning samaradorligi nisbatan pasayib bormoqda. Masalan, 2025 yilda xavflarni boshqarish samaradorligi 88% ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023 yilga nisbatan pasayish ko'rsatmoqda. Buning sabablari orasida xavf-tahlil jarayonida yetarlicha innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar qo'llanmasligi, moliyaviy jarayonlar ko'proq murakkablashgani va yangi turdagi moliyaviy xavflar paydo bo'layotgani mumkin.

Xulosa va takliflar:

Davlat auditda nazorat-xavf taxlilini amalga oshiruvchi organlarning institutsional mustaqilligi va funksional samaradorligini oshirish zarurati ham dolzarb masala hisoblanadi. Bunda audit organlarining ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlash, qaror qabul qilish jarayonlarida mustaqil tahlil va baholash imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari bilan shaffof aloqalarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – audit va moliyaviy nazoratga oid qonun va me'yoriy hujjatlarni xalqaro standartlar bilan moslashtirish, yangi normativ hujjatlarni joriy etish.

2. Kadrlar malakasini oshirish – auditorlar va moliyaviy nazorat xodimlari uchun xalqaro standartlar bo'yicha doimiy malaka oshirish, treninglar va sertifikatlash tizimini joriy etish.

3. Raqamli audit tizimlarini rivojlantirish – avtomatlashtirilgan audit, elektron hisobot va monitoring tizimlarini keng joriy etish.

4. Audit organlarining mustaqilligi va hisobdorligini oshirish – institutsional mustaqillikni ta'minlash va jamoatchilik oldida shaffof hisobdorlikni kuchaytirish.

5. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – INTOSAI, EUROSAI va boshqa tashkilotlar bilan qo'shma loyihalar va treninglar orqali ilg'or tajribani o'rganish va tatbiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023

2. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O`RQ-360-son. 26.12.2013.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2024-yillarda O`zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to`g`risida"gi Qarori. 560-son. 24.08.2020.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi Farmoni. PF-4947-son. 07.02.2017.

2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

6. Матвеева, Н. С. (2020). Международный опыт осуществления государственного финансового контроля. Финансовый журнал, 12(2), 69-95.

7. Oswari, T., & Prasetyo, A. A. (2021). Analysis of internal control system on financial statements government opinion. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 1(1), 87- 95.